

**“BEZOVRTA BO‘LMOQ” SEMANTIK MAYDONIDAGI LEKSEMALARNING
SINONIMIK VA LEKSIKOGRAFIK XUSUSIYATLARI**

Abdusalamovna Sojida Abduxakimova,

O‘zFA, O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

“Terminologiya va leksikografiya” bo‘limi kichik ilmiy xodimi

sojida83@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi “bezovta bo‘lmoq” semantik maydoniga kiruvchi leksemalarning sinonimik va leksikografik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida izohli lug‘at materiallari asosida ushbu maydonga oid birliklar aniqlanib, ularning ma‘no yaqinligi, belgi darajasi hamda uslubiy xususiyatlari o‘rganildi. Tahlil natijasida semantik maydon tarkibidagi leksemalar yadro va periferiya guruhlariga ajratildi. Shuningdek, ular o‘rtasidagi sinonimik, darajaviy va uslubiy munosabatlar yoritildi.

Kalit so‘zlar: semantik maydon, leksema, sema, sinonimiya, leksikografiya, yadro, periferiya, his-tuyg‘u, bezovtalik, hayajon, ruhiy holat, stilistik xususiyat, badiiy nutq.

Аннотация. В данной статье анализируются синонимические и лексикографические особенности лексем, входящих в семантическое поле «bezovta bo‘lmoq» в узбекском языке. В ходе исследования на основе материалов толкового словаря были выявлены единицы данного поля и изучены их семантическая близость, степень выраженности признака и стилистические особенности. В результате анализа лексемы были разделены на ядерные и периферийные группы. Также раскрыты синонимические, градуальные и стилистические отношения между ними.

Ключевые слова: семантическое поле, лексема, сема, синонимия, лексикография, ядро, периферия, эмоции, беспокойство, волнение, психическое состояние, стилистическая характеристика, художественная речь

Abstract. This article analyzes the synonymic and lexicographic features of lexemes belonging to the semantic field of “bezovta bo‘lmoq” in the Uzbek language. In the course of the study, based on explanatory dictionary materials, the units of this field were identified, and their semantic proximity, degree of intensity, and stylistic features were examined. As a result of the analysis, the lexemes were classified into core and peripheral groups. In addition, synonymic, gradational, and stylistic relations among them were revealed.

Keywords: semantic field, lexeme, seme, synonymy, lexicography, core, periphery, emotion, anxiety, excitement, mental state, stylistic features, literary language.

Kirish. Inson his-tuyg‘usi chegara bilmaydi. Biroq ularning barchasi ham tilda o‘z ifodasini topmaydi. Bu tuyg‘ular o‘ta sezilarli va ta’sirchan bo‘lib, davomiyligi bilan ajralib turgandagina so‘z sifatida maydonga keladi. [5]

O‘zbek tilida his-tuyg‘u ifodalovchi leksemalar inson ruhiy faoliyatini, ruhiy kechinmalarini, holatini ifodalaydi. Bu tuyg‘ular turli xil ko‘rinishda — yoqimli va yoqimsiz holatlar, tinchlik va farog‘at, hayajonlanish, ma’yuslanish, dadillik va taraddudlanish, quvonch hamda g‘azab, qo‘rquv va xursandchilik kabi hissiyotlar orqali namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur his-tuyg‘ular til tizimida alohida-alohida emas, balki o‘zaro ma‘no yaqinligi asosida birlashgan holda mavjud bo‘ladi. Shu jihatdan ular semantik maydonni tashkil etadi. Semantik maydon umumiy integral ma‘no asosida birlashgan leksemalar majmuyi bo‘lib, unda birliklar o‘zaro semantik munosabatga

kirishadi. Ushbu nazariya dastlab nemis tilshunosi **J. Trier** tomonidan ishlab chiqilgan edi. Uning ta'kidlashicha – Har qanday birlik faqat yaxlit tizimning bir qismi sifatida ma'no kasb etadi, chunki ma'no faqat semantik maydon ichida yuzaga keladi. [7] Ya'ni, so'zlar til tizimida ma'no jihatidan o'zaro bog'liq holda semantik maydonlar doirasida birlashadi. Har bir so'zning mazmuni aynan shu maydon ichidagi boshqa leksik birliklar bilan bo'lgan semantik munosabatlar orqali aniqlanadi. Keyingi tadqiqotlarda bu g'oya rivojlantirilib, semantik maydon til birliklarining o'zaro tizimli aloqadorligini ifodalovchi muhim nazariy tushuncha sifatida talqin etildi. Bunday maydon tarkibida leksemalar o'zaro sinonimik, darajaviy hamda uslubiy munosabatlar orqali farqlanib, yagona semantik tizimni hosil qiladi.

Tahlillar va natijalar. His-tuyg'u ifodalovchi leksemalar ham ma'lum bir umumiy ma'no, ya'ni ruhiy holatni ifodalash asosida birlashib, alohida semantik maydonni yuzaga keltiradi. Ushbu maydon ichida esa ayrim leksemalar markaziy (yadro) vazifasini bajarib, umumiy ma'noni ifodalasa, boshqalari shu ma'noni turli darajada aniqlashtiradi, kuchaytiradi yoki uslubiy jihatdan boyitadi. **Bu o'rinda**, yadro bu semantik maydonning markazini tashkil qiluvchi, asosiy ruhiy kechinmalarni ifodalovchi leksemalar, periferiya esa yadro ma'nosini aniqlashtiruvchi, kuchaytiruvchi va stilistik rang beruvchi birliklardir.

Mazkur tadqiqotda **“bezovta bo'lmoq”** ma'nosi asosida shakllangan semantik maydon tarkibidagi leksemalar sinonimik va leksikografik jihatdan tahlil qilinadi.

Ushbu leksemalar inson ruhiyatidagi bezovtalik, tashvish va hayajon kabi kechinmalarni ifodalaydi. Leksikografik jihatdan ular quyidagicha ta'riflangan:

Bezovta – «tashvishga tushgan», «hayajonlangan», «betinch»:

Rahim atrofiga bezovta alanglab, kimnidir axtardi. (X.Nazir).

Bezovtalanmoq – «tinchlilgini yo'qotmoq», «tashvishlanmoq», «bezovta bo'lmoq»:

Vaqt o'tgan sayin mehmonlar bezovtalanana boshladi. (R.Fayziy).

Betoqat bo'lmoq – «ortiq darajada bezovta bo'lmoq», «o'zini u yoq-bu yoqqa urmoq»:

Boboqul ota yotgan joyida uzoq yo'taldi, so'ng o'pkasi qisib, xirillay boshladi. Betoqat bo'lib, ko'rpani ochib tashladi. (S.Anorboyev).

Betinch – «tinchlilgini yo'q», «halovati buzilgan», «bezovta»:

El beting, odamlarning yuzlari g'amgin, suhbatlari sertashvish edi. (P. Tursun, O'qituvchi).

Toqatsizlanmoq – «toqati tugab bezovtalanmoq», «betoqat bo'lmoq»:

Komil kelib qoladi deb tobora toqatsizlanib, cho'g' bosib olgan kishi ahvoliga tushgan bek, ... (H. G'ulom)

Hayajon – «biror to'satdan yuz bergan voqea yoki xabardan paydo bo'lgan qattiq tashvishlanish», «bezovtalanish»:

Qiz dahlizda, eshik orqasida kuchli hayajon va sarosimada turgan Gulnorni quchoqladi, sekin shivirladi: «Qayg'urmang, opajon». (Oybek, Qutlug' qon).

Hayajonlanmoq – «ortiq darajada to‘lqinlanmoq», «hovliqmoq», «tashvishlanmoq», «bezovtalanmoq»:

Inobat hayajonlanar, yonib turgan ko‘zlari yaxshilikdan darak berardi, u eriga tikildi. (X.To‘xtaboyev).

Hovliqmoq – «g‘oyat bezovtalanmoq», «hayajonga tushmoq», «tashvishlanmoq»:

Salimboyvachcha hovliqib pastga yugurdi zinadan tushgan choqda Gulnor bilan qarshilashdi. (Oybek, Qutlug‘ qon).

To‘lqinlanmoq – «his-tuyg‘usi jo‘sh urmoq», «ichki kechinmalari qaynab toshmoq», «to‘lg‘anmoq»:

Bo‘taboy ichidan to‘lqinlanib ketayotgan titroqni bosishga zo‘r berib, bir oz jim qoldi. (A.Qahhor).

To‘lg‘anmoq – «o‘zini beixtiyor u yon-bu yonga tashlamoq», «bezovtalanmoq»:

Nizomiddinov hujrasiga kelib temir karavotga boshini ikki kafti orasiga olib, ilon chaqqandek to‘lg‘onib o‘tirdi.

G‘ashlanmoq – «tashvishlanmoq», «bezovtalanmoq», «ta‘bi xira bo‘lmoq»:

Mehrinisa olazarak bo‘lib odamlar to‘dasi ichida borarkan, maddohning ovozi orqasidan quvib ketayotganday bo‘lar, battar hayajonlanib, dili borgan sari g‘ashlanardi. (R. Fayziy).

G‘urmushlamoq – «bezovta bo‘lmoq», «toqatsiz bo‘lmoq», «toqatsizlanmoq»:

Sovuq tushganidan yuraklari g‘urmushlab ketgan kishilar allaqachon dalaga kela boshlagan edilar. (Y. Sa‘dullayeva).

Qaynamoq – «hayajonlanmoq», «bezovta harakatga kelmoq», «to‘lqinlanmoq»:

Sultonmurod qaynagan olomon ichida turtki yeb, ezilib uzoq yurdi. (Oybek).

Xapriqmoq – «hovliqmoq», «bezovtalanmoq»:

Bir mahal uyi yorisha boshlagach, yuragi hapqirib o‘rnidan turib ketdi. (T.Malik, Shaytanat)

“**Bezovta bo‘lmoq**” ma’nosi asosida shakllangan semantik maydon tarkibidagi betoqat bo‘lmoq, toqatsizlanmoq, hayajon, hayajonlanmoq, hovliqmoq, to‘lqinlanmoq, qaynamoq leksemalarining belgi darajasi nisbatan ortiq, bo‘yoqdordir.

G‘urmushlanmoq, xapqirmoq leksemalari esa badiiy nutqqa xos va og‘zaki nutqda kam qo‘llaniladi.

Yuqoridagi tahlilimiz natijasida biz “bezovta bo‘lmoq” semantik maydonini aniq belgilashga muvaffaq bo‘ldik va uning ichki tuzilishini tizimli tarzda tasnifladik. Semantik maydon tarkibidagi leksemalar yadro va periferiya tamoyili asosida ajratildi:

1. Yadro leksemalar — markaziy ma’noni ifodalaydi va semantik maydonning asosiy qismini tashkil qiladi. Ushbu guruhga kiruvchi birliklar: *bezovta, bezovtalanmoq, hayajon, hayajonlanmoq, hovliqmoq, to‘lqinlanmoq, qaynamoq*. Ular asosiy ruhiy kechinmalarni ifodalaydi va semantik maydonning konseptual markazi sifatida xizmat qiladi.

2. Periferiya leksemalar — yadro ma'nosini boyituvchi, intensivlik va stilistik rang beruvchi birliklardir. Ular odatda badiiy nutq kontekstida uchraydi va og'zaki nutqda kam qo'llanadi. Ushbu guruhga kiruvchi birliklar: *betoqat bo'lmoq, toqatsizlanmoq, g'ashlanmoq, g'urmushlamoq, hapqirmoq.*

Xulosa. Bunday leksikografik tahlil asosida semantik maydon yadro va periferiya birliklari orqali tizimli, o'zaro bog'liq ma'no tizimini hosil qilganini ko'rsak bo'ladi. Har bir leksema mazmuni aynan semantik maydon ichidagi boshqa birliklar bilan bo'lgan semantik munosabatlar orqali aniq ma'no kasb etadi. Bu esa "bezovta bo'lmoq" semantik maydonining strukturaviy va funksional xususiyatlarini ilmiy asosda yoritishga imkon beradi.

Tilshunoslikda semantik maydon nazariyasi haqidagi qarashlar so'z ma'nosining tadqiqi bilan bog'liqdir. Olamdagi narsa, voqea-hodisa, harakat hammasi inson ongida tushuncha sifatida aks etadi. Tushuncha esa ma'no yaxlitligidan iborat tovush tizimida so'z shaklida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi tahlilimiz natijasida so'zlarning ma'nosi faqat ularning mustaqil shaklida emas, balki semantik maydon ichidagi o'zaro munosabatlar orqali yuzaga kelishiga guvoh bo'ldik. Bu holat semantik maydon nazariyasining amaliy ahamiyatini va so'z ma'nosini tushunishda tizimli yondashuvning zarurligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik. 1-2-tomlar. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1981.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildlik. – T.: 2006.
3. Апресян Ю.Д. Исследование по семантике и лексикографии: Том I — Парадигматика, 2009.
4. Лексическая семантика. Синонимические средства языка. М, 1974.
5. Лук А.Н. Эмоции и личность М. 1982.
6. Васильев Л.М. Теория семантических полей. Вопросы языкознания, 1971.
7. Azimova M. Semantik maydon konsepsiyasining lingvistik talqinlari. / The Lingua Spectrum, Vol. 6, 2025.